

TARJIMASHUNOSLIK YO'NALISHIDA INNOVATSION G'OYALAR

Odamboyeva Dilnavoz Davronbek qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi.

E-mail: dilnavozadamboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjimashunoslik fani haqida va tarjimashunoslikning tarixi, vujudga kelishi, tarjimashunoslik sohasida qilingan ishlar, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, olimlarning bu fan bilan olib borilgan tadqiqotlari, o'zbekistondagi tarjima maktablari, ushbu yo'nalishda chop etilgan asarlar, mustaqillikdan keyingi olib borilgan ishlar va bugungi kunda fan bilan bog'liq zamonaviy yo'nalishda bo'lgan innovatsion g'oyalar haqida gap borgan.

Kalit so'zlar: tarjima nazariyasi, lisoniy, innovatsion, konsepsiya, lug'atshunoslik

Аннотация: В данной статье рассказывается о науке переводоведения и истории переводоведения, ее создании, проделанной работе в области переводоведения, ее взаимосвязи с другими науками, исследованиях, проводимых учеными этой науки, школах перевода в Узбекистане, опубликованных работах. в этом направлении работы проводились после обретения независимости, и сегодня речь шла об инновационных идеях, связанных с современной наукой.

Ключевые слова: теория перевода, лингвистика, инновационный, концепт, лексикология.

Annotation: This article is about the science of translation studies and the history of translation studies, its creation, work done in the field of translation studies, its relationship with other sciences, researches conducted by scientists in this science, schools of translation in Uzbekistan, works published in this direction, works carried out after independence. and today there was a talk about innovative ideas related to modern science.

Keywords: translation theory, linguistics, innovative, concept, lexicology.

O'zga tilda bitilgan badiiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish san'atkorning bu soxadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puxta qurollanishi zaruriyatini tug'dirdi. Chunki badiiy mahorat sirlarini har tomonlama mukammal egallab o'tgan qalamkashgina mazkur ijod maxsuli bo'lmish fikrni aslimonand tarzda ifoda etish san'atini o'zida puxta qurollanishini zaruratini tug'diradi. Chunki badiiy mahorat sirlarini har tomonlama mukammal egallab olgan qalamkashgina mazkur ijod maxsuli bo'lmish fikrni asliymonand tarzda ifoda etish san'atini o'zida puxta singdirib olgan iste'dod soxibi sifatida to'laqonli badiiy tarjimalar yaratishdek o'ta mas'uliyatli ishning uddasidan chiqishi mumkin.

Badiiy ijod turlari orasida tarjima ko'proq ilmiy asostalabdir. Ko'p yillik xilma-xil baxsu munozaralarni yengib o'tib, o'zining mavjudligini haqli ravishda isbot qilgan tarjima nazariyasi hozirgi kunda o'z tasarrufidagi barcha muammolarni ilmiy tadqiq qiladigan yagona rasmiylashgan filologik soha hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda tarjima tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarning ko'pchiligi dastlab adabiy-tarixiy, ayrimlari lingvistik yo'nalishlarda olib

borildi. Birinchi yo'nalish tarafdorlari asosiy e'tiborini o'girilayotgan asarning badiiy-estetik qiymatigagina qaratib, badiiy yodgorlikning birlamchi asosi bo'lmish lisoniy jihatini nazaridan soqit qilgan bo'lsalar, ikkinchi yo'nalish tarafdorlari qiyoslanayotgan ikki til vositalarining ko'proq lug'aviy muvofiqliklaridan kelib chiqib, asarning badiiy-estetik jihatiga kam e'tibor berdilar. Shunday qilib, insoniyat faoliyatining qadimgi turlaridan bo'lmish tarjima amaliyotini lisoniy-uslubiy nuqtai nazardan tahdil etish nisbatan yosh tadqiqot usuli sifatida bizning Vatanimizda endi shakllanib kelayotgan filologik soha bo'lib, uning tamoyillari olimlar tomonidan ishlab chiqilayotganiga ko'p fursat bo'lgani yo'q. Ammo tarjimachilik faoliyati keyingi yarim asr mobaynida misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib bormoqdaki, bunday amaliyot tadqiqotchilar e'tiborini keng ko'lamda o'ziga tortgani holda, eng samarador usullar vositasida nazariy umumlashtirilishi uchun zarurat vujudga kelmoqda. Bu hol lisoniy uslubiyatning bizdan keyingi o'n yilliklar mobaynida o'z huquqiy maqomiga intila borib, endigina mustaqil filologik soha sifatida ilmiy jamoatchilik nazariga tushayotganligi, shuning uchun ham uning hali o'ziga yaqin, turdosh sohalar bilan munosabatga ko'rishib, o'z dalil va yutuqlaridan ularni yetarli darajada bahramand qilib ulgurmaganligi bilan bog'liqdir.

Tarjima adabiyoti Vatan adabiyoti bilan yonma yon paydo bo'lib, rivojlanib, xalqimizning g'oyaviy-estetik ehtiyojini qoldirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Adabiyotimiz tarixining katta ulushini tashkil etadigan bunday boylikni ilmiy-tanqidiy o'rganib, natijasini tarjima amaliyotiga joriy etish tarjimachilik ishining yuqori saviyasini belgilaydi. Tarjimashunoslik nisbatan yangi fan bo'lib, XX asrning o'rtalarida paydo bo'ldi. Dastlab 40-yillarda tarjimashunoslikda lisoniy yo'nalish paydo bo'ldi.

O'zbekistondagi tarjima maktablari. Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Qadim zamonlardan buyon turli tillarda so'zlovchi xalqlar bir-biri bilan muomala qilganda tarjimon orqali ish bitkazganlar. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Jumladan chet tillarini o'qitish va tarjimon kadrlarni yetishtirish, ularni har tomonlama yetuk kadr qilib tayyorlash masalalariga oid nazariy va amaliy faoliyatni yuritib, tarjima ko'nikmalari va tarjimon maxorati bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qildi. Og'zaki va yozma tarjima chuqur o'rgatilib, talabalarni zamonaviy talablar asosida o'qitish, ularning kasb mahoratini oshirish, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish uchun zamonaviy

axborot texnologiyalari bilan jihozlangan lingafon xonalari, sinxron tarjimaga mo'ljallangan auditoriyalar tashkil etish belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chet tilidagi ta'lim nazariyasi va texnologiyalari kabi usullar. - Kn.1. - Elets: Mir "Tipografiya" Mup "Tipografiya" G. Eltsa, 2010 yil.
2. Chahalaeva L.I. Chet tilidagi nutqni o'rganish nazariyasini o'rganish nazariyasini o'rganish asoslari (Tarjimonlar tayyorlash). - m.: Oliy maktab, 1989 yil.
3. O' Hoshimov, I. Yoqubov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003 yil.
4. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
5. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 348-354.
6. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 348-354.
7. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "The emergence of the concept of "historical memory" in linguistics and the history of its socio-cultural formation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.3 (2022): 169-173.
8. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
9. Rahmonova, Gulnoza, and Dildora Djafarova. "Explanation of the term" neologism." in linguistics. In *Конференции*. 2021.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Fransuz va o'zbek frazeologiyasida "tarixiy xotira" ni ifodalashda til o'yinlarini o'zaro ta'siri (ahamiyati)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.1 (2021): 255-259.
11. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
12. Яхшибоева, Нодира. "ТУРИСТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК ОДИН ИЗ ОСОБЫХ ВИДОВ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ДИСКУРСА." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.6 (2023): 879-884.
13. Karimov Jamshidbek Shavkat ugli. LE discours patronal et discours patronal et discours de propagande. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/3919>